



TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI

Ruzibayeva Jasmina Farhod qizi

Filologiya fakulteti 301-N guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Jumayeva Gulxan Amrullayevna

Nizomiy nomidagi O'zMPU,

Filologiya fakulteti, dotsenti v.b.

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari, ularning tuzilishi va zamonaviy ta'lim muhitidagi ahamiyati ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy unsurlari — predmet-mazmuniy, didaktik-metodik, psixologik-pedagogik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va refleksiv kompetensiyalar yoritilgan hamda ularni shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, o'qituvchi, pedagogik mahorat, kompetentlilik yondashuvi, metodik tayyorgarlik, refleksiya, professional rivojlanish.

Аннотация

В данной статье проанализированы профессиональные компетенции учителя, их структура и значимость в современной образовательной среде. В исследовании раскрыты ключевые компоненты профессиональной компетенции — предметно-содержательная, дидактико-методическая, психолого-педагогическая, коммуникативная, информационно-коммуникационная и рефлексивная компетенции, а также показаны пути их формирования.



Ключевые слова: профессиональная компетенция, учитель, педагогическое мастерство, компетентностный подход, методическая подготовка, рефлексия, профессиональное развитие.

Annotation

This article provides a scholarly analysis of teachers' professional competencies, their structure, and significance within the contemporary educational environment. The study reveals the key components of professional competence — subject-content, didactic-methodological, psychological-pedagogical, communicative, information-communication, and reflective competencies — and outlines the ways of their formation.

Keywords: professional competence, teacher, pedagogical mastery, competence-based approach, methodological preparation, reflection, professional development.

Kirish

XXI asr ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — yangi avlod o'qituvchisini, ya'ni jamiyat va shaxs talablariga muvofiq keladigan, kasbiy jihatdan yuksak salohiyatga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashdir. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi va bilim iqtisodiyotiga o'tish o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis, balki ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli boshqaradigan, o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi, ijodiy va innovatsion yondashuvga tayanadigan kompetent shaxs sifatida talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish



konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni va 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyasini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish vazifalarini muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berdi.¹ Mazkur hujjatlarda kompetentlilik yondashuviga asoslangan ta'lim modellarini joriy etish, uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish, o'qituvchining kasbiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi pedagogika fanida bir muncha vaqtdan beri keng muhokama qilinayotgan kategoriya bo'lib, u o'qituvchining ta'lim-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qadriyatlar tizimi va shaxsiy fazilatlari yig'indisini ifodalaydi. Ushbu tushunchaning mazmuni keng va ko'p qirrali bo'lib, u predmet-mazmuniy, metodik, psixologik-pedagogik, kommunikativ, axborot-texnologik va reflektiv jihatlarni o'z ichiga oladi. Aynan shu tarkibiy unsurlarning birgalikda namoyon bo'lishi o'qituvchining kasbiy yetukligini, pedagogik mahoratini va ta'lim natijadorligini ta'minlaydi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, zamonaviy ta'limning natijaviylik tamoyiliga yo'naltirilishi o'qituvchidan yangi turdagi kasbiy tayyorgarlikni talab qilmoqda; ikkinchidan, raqamli ta'lim muhiti va masofaviy o'qitish texnologiyalarining keng joriy etilishi o'qituvchining axborot-kommunikatsion kompetensiyasini muhim sifatda ilgari surdi; uchinchidan, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash tadqiqotlarining natijalari o'qituvchi tayyorgarligi sifatini yanada oshirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari tushunchasi, uning tarkibiy tuzilishi, shakllanish mexanizmlari va zamonaviy ta'lim sharoitida rivojlantirish yo'llari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili



O'qituvchining kasbiy kompetensiyalari muammosi jahon va milliy pedagogika fanlarida ko'p qirrali yondashuvlar asosida o'rganib kelinmoqda. Kompetentlilik yondashuvining nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, dastlab kasbiy psixologiya va mehnat sotsiologiyasi sohalarida ishlab chiqilgan. Amerikalik psixolog D. MakKlelland 1973-yilda chop etilgan "Testing for Competence rather than for Intelligence" nomli mashhur maqolasida an'anaviy aql-zakovat testlari o'rniga kompetensiya o'lchovlariga asoslanish lozimligini ilmiy asoslab berdi va shu tariqa kompetentlilik nazariyasiga asos soldi². Keyinchalik bu yondashuv pedagogika sohasiga ham keng kirib kelib, ta'lim natijalarini baholashning yangi paradigmasi sifatida e'tirof etildi.

Pedagogning kasbiy faoliyati strukturasi o'rganishda L. Shulmanning "pedagogical content knowledge" (PCK) nazariyasi alohida o'rin tutadi. U o'qituvchining kasbiy bilimlarini predmet bilimi, umumiy pedagogik bilim va eng asosiysi — predmetni o'qitish bo'yicha pedagogik bilim deb tasniflaydi hamda aynan shu uchinchi tur bilim o'qituvchi mahoratining o'zagini tashkil etishini ta'kidlaydi¹. Mazkur nazariya bugungi kunda ham xalqaro pedagogika fanida o'qituvchi tayyorgarligi modellarining metodologik asosi sifatida e'tirof etiladi. Rus pedagog-tadqiqotchilaridan N.V. Kuzmina o'qituvchi faoliyati strukturasi gnostik, loyihaviy, konstruktiv, kommunikativ va tashkiliy komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida ilgari surdi, A.K. Markova esa kasbiy kompetentlilikni o'qituvchining haqiqiy mehnat darajasi va shaxsiy psixologik sifatlari mutanosibliigi sifatida belgilab berdi³.

O'zbekistonda kasbiy kompetentlilik masalalari N. Sayidahmedov, J.G'. Yo'ldoshev, N.N. Azizxo'jayeva, U.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva, B.

¹Shulman L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. — 1986. — Vol. 15, No. 2. — P. 9.



Ziyomhammadov kabi olimlarning ilmiy ishlarida har taraflama o'rganib kelinmoqda. Xususan, N. Sayidahmedov o'zining "Yangi pedagogik texnologiyalar" asarida zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahoratini ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirishi va ulardan ijodiy foydalanishi bilan bog'liq holda tushuntirsa, N.N. Azizxo'jayeva pedagogik mahorat va kompetensiyani uzviy bog'liq holda yoritib, o'qituvchi shaxsining psixologik-pedagogik tayyorgarligi muhim ekanligini asoslab beradi². U.Q. Tolipov va M. Usmonboyevaning tadqiqotlarida kompetentlilik yondashuvini oliy ta'limda joriy etish metodologiyasi puxta ishlab chiqilgan bo'lib, bu izlanishlar respublikamizda zamonaviy o'qituvchi modelini shakllantirishga muhim hissa qo'shgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiya tushunchasi olimlar tomonidan turlicha — qobiliyat, mahorat, kasbiy salohiyat, integrativ shaxsiy sifat, faoliyatga tayyorgarlik sifatida talqin qilinadi. Biroq barcha yondashuvlarda o'qituvchining bilimlari, ko'nikmalari, qadriyat yo'nalishlari va kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladigan amaliy mahorati birgalikda kompetensiyani tashkil etadi degan g'oya markaziy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim muhiti va globallashuv sharoitida kompetensiya strukturasi axborot-kommunikatsion va madaniyatlararo jihatlarining qo'shilishi alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanib kelmoqda.

Metodologiya

Tadqiqotda o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini har taraflama yoritish maqsadida ilmiy bilishning umumnazariy, xususiy va pedagogik tadqiqot metodlari majmuasi qo'llanildi. Metodologik asos sifatida kompetentlilik yondashuvi (V.A. Xutorskoy, A.K. Markova, N. Sayidahmedov), tizimli-faoliyat yondashuvi (L.S.

²Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — T.: TDPU, 2006. — B. 87.



Vigotskiy, A.N. Leontyev) va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv (I.S. Yakimanskaya, K. Rojers) tanlandi. V.A. Xutorskoyning ta'kidlashicha, kompetentlilik yondashuvi ta'lim natijalarini bilim-ko'nikma-malaka tushunchalaridan tashqariga olib chiqib, ularni shaxsning real faoliyat sharoitidagi muvaffaqiyati bilan bog'lashga imkon beradi³. Mazkur metodologik asoslar kasbiy kompetensiyani o'qituvchi shaxsining ko'p komponentli, dinamik va integrativ tizimi sifatida tadqiq qilish imkoniyatini bergan.

Birinchi bosqichda muammoga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD, Yevropa Ittifoqi) tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchi kompetensiyalari modellari nazariy tahlil qilindi. Xususan, OECD tomonidan e'lon qilingan tadqiqotda o'qituvchining kasbiy kompetentligi to'rt asosiy yo'nalishni — predmet bilimini, didaktik-metodik mahoratni, psixologik-pedagogik tayyorgarlikni va ijtimoiy-shaxsiy fazilatlarni qamrab olishi ko'rsatib berilgan⁴. Tahlil davomida xalqaro va milliy yondashuvlarni qiyoslash, mavjud kompetensiya modellarining umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash uchun qiyosiy-tipologik metoddan keng foydalanildi.

Ikkinchi bosqichda nazariy umumlashtirish, abstraktlashtirish, klassifikatsiya va modellashtirish metodlari yordamida o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining tuzilmaviy modeli ishlab chiqildi. Empirik darajada anketa so'rovi, suhbat, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish va pedagogik tajriba elementlari qo'llanildi. I.A. Zimnyaya tomonidan asoslangan kompetensiyalarni o'lchashning kompleks yondashuviga muvofiq tanlangan ushbu metodlar o'qituvchining real kasbiy faoliyatida

³Xutorsкой А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Эйдос: интернет-журнал. — 2002. — С. 14.

⁴OECD. Teachers as Lifelong Learners: Teaching Professionals for the 21st Century. — Paris: OECD Publishing, 2019. — P. 47.



kompetentlilik darajasini aniqlashga xizmat qildi⁵. Pedagogik kuzatuv jarayonida darslarni tahlil qilish, o'quv-tarbiya jarayonidagi pedagogik vaziyatlarni hujjatlashtirish va o'qituvchilarning kasbiy refleksiyasini o'rganish e'tibor markazida bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun olingan ma'lumotlar matematik-statistik tahlil orqali qayta ishlendi. Xususan, o'rtacha qiymat, foiz nisbati va Pirsonning korrelyatsion koeffitsienti hisoblab chiqildi, bu esa kasbiy kompetensiya tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asoslangan tarzda baholash imkonini berdi⁶. Tadqiqotda olingan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining bir-birini to'ldirishi natijalarning yuqori darajadagi obyektivligini ta'minladi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya o'qituvchining kasbiy kompetentligini nazariy va amaliy aspektlarda chuqur yoritishga hamda muammo bo'yicha asoslangan xulosalar chiqarishga imkon yaratdi.

Natija va xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi yaxlit va ko'p komponentli tizim bo'lib, u kamida besh asosiy tarkibiy unsumni o'z ichiga oladi. Birinchidan, predmet-mazmuniy kompetensiya — o'qituvchining o'z fanini chuqur va keng bilishi, ilmiy mazmunni o'quvchilarga mos shaklda taqdim eta olishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, didaktik-metodik kompetensiya zamonaviy ta'lim texnologiyalari, faol va interaktiv usullarni qo'llay olish mahoratida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, psixologik-pedagogik kompetensiya o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, tarbiyaviy ta'sir

⁵Зимняя И.А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. — 2003. — № 5. — С. 38.

⁶Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik tadqiqotlarda matematik-statistik tahlil. — T.: O'qituvchi, 2018. — B. 79.



ko'rsatish qobiliyatidir. To'rtinchidan, axborot-kommunikatsion kompetensiya raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish va qo'llashni qamrab oladi. Beshinchidan, reflektiv kompetensiya o'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy baholay olishi va kasbiy o'sishini doimiy ta'minlashga yo'naltirilgan⁷.

Tadqiqotda aniqlanishicha, mazkur tarkibiy unsurlar bir-biri bilan dialektik aloqada bo'lib, ularning yaxlit rivojlanishi o'qituvchining kasbiy mahorati shakllanishi uchun zaruriy shartdir. Xususan, J. Hetti tomonidan o'tkazilgan keng ko'lamli meta-tahlil natijalariga ko'ra, o'qituvchining kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati o'quvchilar o'zlashtirishining sezilarli qismini belgilab beradigan eng kuchli omillardan biri ekanligi tasdiqlangan⁸. Shu nuqtai nazardan, kasbiy kompetensiyaning rivojlantirilishi nafaqat o'qituvchining shaxsiy o'sishi, balki butun ta'lim tizimining sifati uchun ham strategik ahamiyatga ega.

Empirik kuzatuvlar va so'rovnoma natijalari respondent o'qituvchilarning aksariyatida predmet-mazmuniy va metodik kompetensiyalar nisbatan yaxshi rivojlanganligini, biroq axborot-kommunikatsion va reflektiv kompetensiyalar bo'yicha qo'shimcha tayyorgarlikka ehtiyoj sezilayotganini ko'rsatdi. Bu holat O'zbekistonda kasbiy malakani oshirish tizimini takomillashtirish va o'qituvchilarni uzluksiz ravishda zamonaviy texnologiyalar hamda pedagogik innovatsiyalar bilan ta'minlash zaruriyatini dolzarblashtirmoqda⁹. Shu boisdan, Respublika Ta'lim markazi, viloyat va shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlari faoliyatini optimallashtirish, modulli o'quv dasturlarini

⁷Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — T.: Fan, 2006. — B. 113.

⁸Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. — London: Routledge, 2009. — P. 113.

⁹Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. — T.: MUMTOZ SO'Z, 2017. — B. 58.



joriy etish va o'qituvchining individual kasbiy traektoriyasini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari — bu uzluksiz ta'lim, kasbiy o'sish va pedagogik tajriba asosida rivojlanadigan dinamik tizimdir. Uning samarali shakllanishi bir vaqtning o'zida bir qator omillarni — pedagogik ta'limning sifatini, kasbiy malaka oshirish tizimining moslashuvchanligini, o'qituvchi shaxsining motivatsiyasi va kasbiy refleksiyasini, ta'lim muassasasidagi metodik muhitni va davlat siyosatidagi qo'llab-quvvatlovni o'z ichiga oladi¹⁰. Bu yo'nalishda olib boriladigan tizimli ishlar O'zbekistonda zamonaviy talablarga to'la javob bera oladigan, ijodkor va kompetent o'qituvchi avlodini shakllantirish hamda bilim iqtisodiyoti tomon harakatda ta'limning yetakchi omilga aylanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2006. — 192 b.
3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Эйдос: интернет-журнал. — 2002. — 23 апреля.

¹⁰Darling-Hammond L. Teacher Education Around the World: What Can We Learn from International Practice? // European Journal of Teacher Education. — 2017. — Vol. 40, No. 3. — P. 298.



4. . OECD. Teachers as Lifelong Learners: Teaching Professionals for the 21st Century. — Paris: OECD Publishing, 2019. — 132 p.
5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня-2003.-№ 5.—С. 34–42.
6. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik tadqiqotlarda matematik-statistik tahlil. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. - 158 b.
7. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent: Fan, 2006. — 213 b.
8. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. — London: Routledge, 2009. — 378 p.
9. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2017. — 224 b.
10. Darling-Hammond L. Teacher Education Around the World: What Can We Learn from International Practice? // European Journal of Teacher Education. — 2017. — Vol. 40, No. 3. — P. 291–309.